Mazkur tadqiqotning maqsadi yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirishda ESG tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimining o'zaro integratsiyasining nazariy hamda metodologik asoslarini tadqiq etish, shuningdek, ularni korxonalar marketing faoliyatiga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari korxonalarining marketing strategiyalarini takomillashtirish, yashil brend imijini shakllantirish, iste'molchilar ishonchini mustahkamlash, xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati ESG tamoyillari, energiya menejmenti va yashil marketingning integratsiyalashgan modelini shakllantirish orqali korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Energiya menejmenti tizimlarini xalqaro miqyosda yagona yondashuv asosida tashkil etish va boshqarishda ISO 50001 standarti muhim me'yoriy asos vazifasini bajaradi. Mazkur standart tashkilotlarda energiya iste'molini rejalashtirish, monitoring qilish, tahlil etish va doimiy takomillashtirish jarayonlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. ISO 50001 standarti PDCA (Plan-Do-Check-Act) sikliga asoslangan bo'lib, energiya ko'rsatkichlarini muntazam baholash, energiya maqsadlarini belgilash, energiya natijadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini nazorat qilish imkonini beradi. Natijada korxonalarda energiya sarfini kamaytirish, energiya yo'qotishlarini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ekologik yuklamani pasaytirish uchun mustahkam amaliy zamin yaratiladi.

Zamonaviy sanoat tizimlarining murakkablashuvi, texnologik jarayonlarning ko'p omilliligi va energiya oqimlarining dinamik xususiyatlari energiya menejmenti jarayonlarini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Bunday sharoitda raqamli texnologiyalarni energiya boshqaruviga integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, aqlli hisoblagichlar, IoT sensorlari, bulutli ma'lumotlar bazalari, katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt algoritmlari energiya iste'molini real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish hamda optimallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Raqamli energiya menejmenti tizimlari energiya ko'rsatkichlarini qayd etish bilan bir qatorda ularni prognozlash, og'ishlarni aniqlash, yo'qotishlar manbalarini belgilash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, energiya menejmenti tizimlarini joriy etish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, ISO 50001 standartini raqamli boshqaruv vositalari bilan integratsiyalashgan holda yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan bog'liq tarzda kompleks o'rganish yo'nalishi



istiqboli tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, energiya, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarni yagona axborot-boshqaruv modelida birlashtirish, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda boshqaruv qarorlarini raqamli tahlil asosida asoslashga qaratilgan metodologik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ISO 50001 asosida raqamli energiya menejmenti tizimlari orqali yashil iqtisodiyotga o'tishni ta'minlashga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi va ekologik mas'uliyat masalalari so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimi korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, energiya resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik va ijtimoiy natijadorlikni oshirishning muhim vositalari sifatida e'tirof etilmoqda.

Energetika menejmenti tizimlarini joriy etish va rivojlantirish masalalari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. ISO 50004:2020 standartida ISO 50001 energetika menejmenti tizimini joriy etish, qo'llab-quvvatlash va doimiy takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Ushbu standart energiya natijadorligini baholash, energiya maqsadlarini belgilash va energiya iste'molini tizimli boshqarishning metodik asoslarini shakllantiradi.

D.O. Skobelev va M.V. Stepanova energiya menejmentining zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilib, sanoat korxonalarida energiya iste'molini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy jihatlarini yoritgan. Mualliflar energiya samaradorligini oshirish korxonalarining xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydilar. V.S. Gorbunova va E.Yu. Puzina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Rossiya sanoat korxonalarida energetika menejmenti tizimlarini joriy etish natijasida energiya xarajatlari qisqarishi va ishlab chiqarish samaradorligi ortishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

V.Yu. Konyuxov, T.A. Oparina va She Son Gun energiya menejmentini energiya tejashning samarali tizimi sifatida baholab, uni joriy etish jarayonida uchraydigan tashkiliy va texnologik omillarni tahlil qilganlar. Tadqiqotchilar energiya menejmenti tizimining muvaffaqiyati korxonalarda monitoring, nazorat va boshqaruv mexanizmlarining samarali tashkil etilishiga bog'liqligini qayd etadilar.

O'zbekistonlik olimlar G'.G'. Boboyev va N.A. Inatova tomonidan ISO 50001 xalqaro standartini mamlakat energetika tizimiga integratsiya qilish masalalari tadqiq etilgan. Mualliflar energiya menejmenti tizimlarini ishlab chiqarish korxonalarida joriy etish energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va energiya xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qilishini asoslab berganlar. Shuningdek, ularning keyingi tadqiqotlarida energiya menejmenti tizimlarining ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliy natijalari va energiya tejamkorlikka ta'siri yoritilgan.

Yashil marketing va barqaror rivojlanish masalalari marketing nazariyasida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda yashil marketing ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish, iste'molchilarning ekologik ehtiyojlarini qondirish hamda korxonaning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini namoyon etuvchi marketing konsepsiyasi sifatida talqin qilinadi. Xaydarova K. va Umaraliyev A. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda ekologik omillar va innovatsion boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Xaydarova K. va hammualliflar tomonidan marketing strategiyalarining samaradorligini oshirish, differensiyalashgan marketing yondashuvlari hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing tadqiqotlarini boshqarish masalalari tadqiq qilingan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, energiya menejmenti tizimlari, ESG tamoyillari va yashil marketing bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Biroq ESG tamoyillari hamda ISO 50001 energetika menejmenti tizimini yagona metodologik platformada integratsiyalash orqali yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirish masalasi qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Ayniqsa, energiya samaradorligi ko'rsatkichlari, ESG indikatorlari va marketing natijalarini o'zaro bog'liq holda baholashga qaratilgan integratsiyalashgan modellarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Shu sababli mazkur tadqiqot ESG tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimining o'zaro integratsiyasi asosida yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirishda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari hamda ISO 50001 energetika menejmenti tizimining integratsiyalashuv imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini energiya va resurslardan foydalanish ko'rsatkichlarini yig'ish,



ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini baholash, ularni raqamli monitoring vositalari yordamida qayd etish, tahlil qilish, marketing qarorlarini shakllantirish hamda yakuniy natijalarni iqtisodiy, ekologik va bozor ko'rsatkichlari asosida aniqlashga yo'naltirilgan integratsiyalashgan yondashuv tashkil etadi.

Ushbu yondashuv doirasida taklif etilgan model korxonani energiya, resurs, ekologik, ijtimoiy, axborot va marketing oqimlari o'zaro uzviy bog'langan murakkab tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi (1-rasm).



1-rasm. Yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirishda ESG tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimining integratsiyalashgan modeli¹

Mazkur tadqiqotda korxonada faoliyatini tavsiflovchi kirish ma'lumotlari sifatida elektr energiyasi sarfi, issiqlik energiyasi iste'moli, gaz va yoqilg'i resurslari hajmi, suv va xomashyo sarfi, ishlab chiqarish hajmi, energiya tariflari, karbon emissiyasi ko'rsatkichlari, ESG indikatorlari, iste'molchilar talabi, ekologik xavfsiz mahsulotlarga

1 Manba: tadqiqot natijalari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.



bo'lgan ehtiyoj hamda marketing kommunikatsiyalari samaradorligi qabul qilinadi. Ushbu parametrlar korxonada faoliyatining energiya yuklamasi, ekologik ta'siri, ijtimoiy mas'uliyati va bozor salohiyatini tavsiflovchi asosiy axborot manbalari sifatida qaraladi.

Tadqiqotda foydalanilgan materiallar tarkibiga birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar kiritildi. Birlamchi ma'lumotlar ishlab chiqarish jarayonlarida energiya va resurslar sarfini qayd etuvchi o'lchov vositalari, hisoblagichlar, texnologik kuzatish jadvallari, energiya balanslari, ESG hisobotlari, iste'molchilar so'rovlari hamda marketing faoliyati natijalari asosida shakllantirildi. Ikkilamchi ma'lumotlar sifatida ISO 50001 standarti talablari, ESG mezonlari, energiya menejmenti tizimiga oid me'yoriy hujjatlar, energiya samaradorligini baholash metodikalari, shuningdek, yashil marketing va barqaror rivojlanishga oid ilmiy-uslubiy manbalardan foydalanildi. Natijada ma'lumotlar bazasi texnik, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va marketing ko'rsatkichlarini qamrab olgan holda shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida dastlab korxonada faoliyatiga ta'sir etuvchi energiya va resurs oqimlari, ESG komponentlari hamda marketing kommunikatsiyalari o'rtasidagi bog'liqliklar tizimli yondashuv asosida identifikatsiya qilindi. Bunda ishlab chiqarishning alohida texnologik bo'g'inlari bo'yicha energiya iste'moli, resurslardan foydalanish darajasi, chiqindi va emissiya manbalari, ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari hamda korporativ boshqaruv mexanizmlari tahlil qilindi. Mazkur bosqich korxonaning energetik va ekologik salohiyatini yashil marketing ustunliklariga aylantirish uchun zarur bo'lgan axborot maydonini shakllantirishga xizmat qildi.

Raqamli monitoringni tashkil etishda aqlli hisoblagichlar, IoT sensorlari, avtomatik nazorat qurilmalari, ESG hisobot tizimlari va raqamli ma'lumotlar bazalari asosida ishlovchi axborot oqimi konsepsiyasi qo'llanildi. Ushbu vositalar yordamida energiya va resurslar iste'moli, karbon emissiyasi, ekologik hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarga oid ma'lumotlarni real vaqt rejimiga yaqin sharoitda qayd etish, ularni markazlashtirilgan bazada saqlash va qayta ishlash imkoniyati yaratildi. Mazkur yondashuv ma'lumotlarning davriy hisobot shaklida emas, balki uzluksiz monitoring rejimida shakllanishini nazarda tutadi. Natijada model doirasida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, energiya sarfi, ESG mezonlari va marketing natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash hamda korxonaning yashil brend imijini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot metodlari sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, kontent-tahlil, statistik guruhlash va integratsiyalashgan yondashuv usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida ESG tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimining o'zaro integratsiyasi yashil marketing strategiyalarini takomillashtirish, iste'molchilar ishonchini oshirish, ekologik mas'uliyatni kuchaytirish va korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtai nazaridan baholandi. Natijada energiya samaradorligi, ekologik barqarorlik va marketing samaradorligini o'zaro uyg'unlashtiruvchi konseptual model ishlab chiqildi.

Tahliliy baholash bosqichida energiya va resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfini aniqlash uchun energiya sig'imi ko'rsatkichi qo'llanildi.

$$E_s = \frac{E}{Q}$$

bu yerda:

E_s — mahsulot birligining energiya sig'imi;

E — jami energiya sarfi;

Q — ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Mazkur ko'rsatkich ishlab chiqarishning energiya jihatidan qanchalik tejamkor tashkil etilganligini baholash imkonini beradi. E_s qiymatining pasayishi energiya menejmenti choralarining ijobiy natijalarini aks ettiradi. Resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun resurs sig'imi ko'rsatkichi qabul qilindi:

$$R_s = \frac{R}{Q}$$

bu yerda:

R_s — mahsulot birligining resurs sig'imi;

R — jami resurs sarfi;

Q — ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkich xomashyo, suv yoki boshqa ishlab chiqarish resurslarining mahsulot hajmiga nisbatan sarfini baholashga xizmat qiladi. U ishlab chiqarishning resurs tejamkorligi darajasini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya menejmenti joriy etilgandan keyingi natijadorlikni aniqlash uchun energiya tejalihi darajasi quyidagi ifoda yordamida baholandi:



$$K_e = \frac{E_0 - E_1}{E_0}$$

bu yerda:

K_e — energiya tejallishi koeffitsiyenti;

E_0 — bazaviy davrdagi energiya sarfi;

E_1 — takomillashtirilgan davrdagi energiya sarfi.

Mazkur koeffitsiyent energiya menejmenti tadbirlari natijasida umumiy energiya sarfining qisqarish ulushini ifodalaydi. Uning yuqori qiymati energiya boshqaruvi samaradorligining ortganligini anglatadi.

Resurs tejamkorligi darajasini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichdan foydalanildi:

$$K_r = \frac{R_0 - R_1}{R_0}$$

bu yerda:

K_r — resurs tejamkorligi koeffitsiyenti;

R_0 — bazaviy davrdagi resurs sarfi;

R_1 — takomillashtirilgan davrdagi resurs sarfi.

Ushbu koeffitsiyent xomashyo, suv va boshqa ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishda erishilgan tejamkorlik darajasini aks ettiradi. Mazkur ko'rsatkich yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim mezonlaridan biri sifatida baholandi.

Iqtisodiy natijadorlikni tavsiflash maqsadida energiya xarajatlari bo'yicha tejalgan mablag' miqdori quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$S = (E_0 - E_1) \times T$$

bu yerda:

S — energiya xarajatlari bo'yicha tejalgan mablag';

T — energiya resursining tarif qiymati.

Mazkur ifoda boshqaruv choralarining moliyaviy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkich energiya menejmentining ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga qo'shgan hissasini baholashda qo'llanildi.

Tadqiqotda raqamli boshqaruvning umumiy natijadorlikka ta'sirini baholash maqsadida integrallashgan ko'rsatkich ham taklif etildi:

$$I_y = w_1 K_e + w_2 K_r + w_3 K_c + w_4 K_d$$

bu yerda:

I_y — yashil iqtisodiyotga o'tishning integral indeksi;

K_e — energiya tejallishi koeffitsiyenti;

K_r — resurs tejamkorligi koeffitsiyenti;

K_c — ekologik samaradorlik koeffitsiyenti;

K_d — raqamli boshqaruv darajasi koeffitsiyenti;

w_1, w_2, w_3, w_4 — vazn koeffitsiyentlari.

Mazkur ko'rsatkich modelning asosiy metodologik elementi sifatida qaraladi, chunki u energiya, resurs, ekologik va raqamli boshqaruv mezonlarini yagona baholash tizimida birlashtiradi. Natijada korxonaning yashil transformatsiya darajasi kompleks tarzda aniqlanadi.

Vazn koeffitsiyentlarini aniqlashda ko'rsatkichlarning boshqaruv tizimidagi nisbiy ahamiyati inobatga olindi. Bunda energiya samaradorligi va ekologik natijadorlikka ustuvor ahamiyat berildi, chunki ular sanoat korxonasining yashil rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Raqamli boshqaruv koeffitsiyenti esa ma'lumotlarni yig'ish tezligi, monitoring qamrovi, tahliliy qayta ishlash sifati hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning operativligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotda tizimli tahlil usuli korxonadagi energiya va resurs oqimlarini o'zaro bog'liq elementlar sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil yordamida bazaviy va takomillashtirilgan holatlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Strukturaviy-funksional yondashuv esa modelning tarkibiy qismlari hamda ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni asoslash imkonini berdi. Shu tariqa tanlangan metodlar majmui energiya menejmenti, raqamli monitoring va yashil iqtisodiyot natijalarini yagona metodologik platformada birlashtirishga xizmat qildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil marketing konsepsiyasini samarali rivojlantirish korxonalarda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari hamda ISO 50001 energetika menejmenti tizimining o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilishiga bevosita bog'liqdir. Mazkur integratsiya nafaqat energiya samaradorligini oshirish va ekologik ta'sirni kamaytirishga, balki korxonaning marketing salohiyatini rivojlantirish, brend qiymatini oshirish hamda bozor raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ESG tamoyillarining ekologik komponenti (Environmental) va ISO 50001 standartining energiya samaradorligini uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan talablari o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjud. Korxonalarda energiya iste'molini monitoring qilish, energiya sarfini optimallashtirish va uglerod emissiyasini kamaytirish orqali ishlab chiqarishning ekologik ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Natijada yashil marketing strategiyalarini samarali shakllantirish hamda iste'molchilarning ekologik xavfsiz mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish imkoniyatlari kengayadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ESG tamoyillarining ijtimoiy (Social) va boshqaruv (Governance) yo'nalishlari korxonalarining manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorligini rivojlantirish, korporativ shaffoflikni oshirish hamda ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Mazkur omillar korxonaning ijobiy imijini shakllantirish, iste'molchilar ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli marketing ustunliklariga erishish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tadqiqot doirasida yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirishga qaratilgan ESG tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimining integratsiyalashgan modeli taklif etildi (1-jadval).

1-jadval

ESG tamoyillari va ISO 50001 asosida yashil marketingni rivojlantirishning konseptual modeli²

Integratsiya elementlari	Asosiy yo'nalishlar	Marketing natijalari
Environmental (E)	Energiyani tejash, uglerod emissiyasini kamaytirish, ekologik samaradorlikni oshirish	Yashil mahsulot imiji va ekologik afzalliklarni shakllantirish
Social (S)	Ijtimoiy mas'uliyat, xodimlar xavfsizligi, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik	Mijozlar ishonchi va sodiqligini oshirish
Governance (G)	Korporativ boshqaruv, shaffoflik, ESG hisobotlarini yuritish	Brend obro'si va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish
ISO 50001	Energiya samaradorligi, energiya monitoringi va uzluksiz takomillashtirish	Xarajatlarni kamaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish
Yashil marketing	Barqaror mahsulotlar, ekologik kommunikatsiyalar va yashil branding	Bozor ulushi hamda korxonaga qiymatini oshirish

Taklif etilgan modelga ko'ra, ESG tamoyillari va ISO 50001 standartining integratsiyasi energiya samaradorligi ko'rsatkichlari hamda marketing faoliyati o'rtasida sinergik bog'liqlikni shakllantiradi. Natijada korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, ekologik xavflarni minimallashtirish, yashil brendni rivojlantirish hamda iste'molchilar va investorlar ishonchini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ESG tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimining integratsiyasi yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Mazkur integratsiya korxonalarining barqaror rivojlanish strategiyasini takomillashtirish, xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga samarali joriy etishga xizmat qiladi. Natijada korxonalarda iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va marketing ustunliklari o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi integratsiyalashgan boshqaruv tizimi shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirishda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimining o'zaro integratsiyasi masalalari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu ikki yondashuvning uyg'unlashtirilishi korxonalarda nafaqat energiya samaradorligini oshirish va ekologik ta'sirni kamaytirish, balki marketing faoliyatini yangi sifat bosqichiga olib chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

² Manba: mazkur konseptual model mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.



O'rganishlar natijasida aniqlanishicha, ISO 50001 standarti korxonalarda energiya resurslarini tizimli boshqarish, monitoring qilish va uzluksiz takomillashtirish imkonini beradi. ESG tamoyillari esa korxonalar faoliyatini ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlari asosida baholash hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki tizimning integratsiyasi natijasida energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik ko'rsatkichlari korxonalarning marketing strategiyalarida muhim raqobat ustunligiga aylanadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan model energiya, resurs, ESG va marketing ko'rsatkichlarini yagona axborot tizimida uyg'unlashtirish imkonini berishi aniqlandi. Bu esa korxonalar real vaqt rejimida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, xarajatlarni optimallashtirish, uglerod emissiyasini kamaytirish hamda yashil brend imijini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, yashil marketing strategiyalarini rivojlantirishda iste'molchilarning ekologik ong darajasi, mahsulotlarning energiya tejankorligi va korxonaning ESG reytingi muhim omillar sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Mazkur holat korxonalarni barqaror rivojlanish tamoyillarini marketing siyosatiga yanada chuqur integratsiya qilishga undaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ESG tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimining integratsiyasi yashil marketing konsepsiyasini rivojlantirishning samarali ilmiy-amaliy mexanizmlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv korxonalarning ekologik mas'uliyatini kuchaytirish, energiya samaradorligini oshirish, brend qiymatini mustahkamlash hamda xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) asosida integratsiyalashgan yashil marketing tizimlarini rivojlantirish istiqbolli ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Korxonalarda ESG tamoyillari va ISO 50001 energetika menejmenti tizimini o'zaro integratsiyalashgan holda joriy etish maqsadga muvofiq.

Energiya samaradorligini monitoring qilish va boshqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalar hamda IoT yechimlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqishda ekologik ko'rsatkichlar va ESG reytinglari asosiy kommunikatsion vositalardan biri sifatida qo'llanilishi lozim.

Korxonalarda uglerod emissiyasini qisqartirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va ularni marketing strategiyalari bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ESG hisobotlarini muntazam yuritish hamda manfaatdor tomonlarga taqdim etib borish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ISO 50004:2020. Energy Management Systems – Guidance for Implementation, Maintenance and Improvement of an ISO 50001 EnMS. Geneva: International Organization for Standardization, 2020.
2. Скобелев Д.О., Степанова М.В. Энергетический менеджмент: прочтение 2020. Руководство по управлению энергопотреблением для промышленных предприятий. – Москва, 2020. – С. 17–25.
3. Boboyev G'.G', Inatova N.A. ISO 50001 xalqaro standartini O'zbekiston energetika tizimiga integratsiya qilish // "Milliy standart" ilmiy-texnik jurnali. – 2024. – № 2. – B. 73–75.
4. Горбунова В.С., Пузина Е.Ю. Эффективность внедрения системы энергетического менеджмента в промышленных компаниях России // Transportation Systems and Technology. – 2018. – Т. 4. – № 1. – С. 119–137.
5. Конюхов В.Ю., Опарина Т.А., Ше Сон Гун. Энергоменеджмент как эффективная система энергосбережения и решение проблем её внедрения // Том 10. – № 4. – 2020. – С. 534–543.
6. Бобоев Г.Г., Инатова Н.А. Внедрение системы энергоменеджмента для повышения энергоэффективности на производственных предприятиях // Главный энергетик. – 2025. – № 2 (259). – С. 4–9.
7. Xaydarova K., Umaraliyev A. Yashil iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish // Green Economy and Development. – 2026. – Vol. 4. – No. 3. DOI: 10.5281/zenodo.19239157.
8. Khakimova N.K., Xaydarova K.A., Aliyeva J.A., Baymukhamedova G.F., et al. Marketing Research Management in the Digital Economy // Confrencea. – 2026. – Vol. 6. – No. 6.
9. Xaydarova K., et al. Differensiyalangan marketing strategiyasining mohiyati va uning samaradorligi // Advanced Economics and Pedagogical Technologies. – 2025. – Vol. 2. – No. 3. – P. 49–54. DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp49-54.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>